



## ISLOM DINIDA MULK TUSHUNCHASI

**To'ychiyev Shahzod Shavkatovich**

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Magistratura bo'limi, Islomshunoslik

fakulteti 2-kurs magistranti

Tel: +998975757636

Elektron pochta manzili: shazodtoychiyev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10517374>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 06-January 2024 yil

Ma'qullandi: 10- January 2024 yil

Nashr qilindi: 16- January 2024 yil

### KEY WORDS

*mulk, kapitalizm nazariyasi, sotsializm nazariyasi.*

### ABSTRACT

*Bu maqolada «Islom dinida mulk tushunchasi» mavzusida mulk tushunchasi qachon paydo bo'lganligi va uning taqsimoti unga oid fiqhiy hukmlar, ularning dolzarbligi va hozirgi kunda yuzaga kelayotgan zamonaviy masalalarning mazhablar orasidagi farqlari va ularga yechimlar haqida batafsil so'z etilgan.*

Mulk – moddiy va ma'naviy ne'matlarning muayyan kishilar egaligida bo'lishi va ular tomonidan o'zlashtirilishidir. Mulkka egalik huquqi hamda mulk obyektlariga egalik, ularni bo'lish, taqsimlash bo'yicha kishilar o'rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

Mulk obyekti yer va yer osti boyliklari, korxonalar, bino, inshootlar, mashina va uskunalalar, tayyor mahsulot, pul, qimmatli qog'ozlar, san'at va adabiyot asarlari, ilmiy va texnikaviy ishlanmalar va boshqalar bo'lishi mumkin. Moddiy va ma'naviy ne'matlarni amalda o'zlashtiruvchilar mulk subyektlari, ya'ni egalari hisoblanadi. Bularga ayrim kishilar, oilalar, jamoalar va davlat kiradi. Mulkdan amalda foydalanib, bundan naf ko'rish mulkni iqtisodiy tasarruf qilish hisoblanadi.

Bozorga asoslangan va bozorga asoslanmagan iqtisodiyotlar bir-birlaridan mulkchilik munosabatlariga bo'lgan qarashlari bilan farq qiladilar. Markazlashgan ma'muriy boshqarish iqtisodiyoti davlat va jamoat mulklariga asoslangan bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti esa avvalo shaxsiy yoki xususiy lashtirilgan mulkchilikni ko'zda tutadi. Bozorda tovarlarni almashuvi turli mulk egalari o'rtasida o'zaro iqtisodiy manfaatdorlik mezoni asosida amalga oshiriladi. Bir nimaga egalik qilish insonlar o'rtasida mulkiy munosabatlarni iqtisodiy munosabatlarga aylantiradi. Shaxsiy mulkka egalik qilish insonlarni o'z mulklariga to'la egalik qilishlarini, ya'ni uning to'liq egasi, xo'jayini bo'lish, unga to'la hukmronlik qilishni bildiradi.

Insonlar o'z mulklarini ko'paytirishga doimo qiziqadilar va harakat qiladilar. Biroq bozordan ko'plab noz-ne'matlarni xarid qilish uchun ular endi ko'proq o'zlarining tovarlari (mahsulotlari)ni ishlab chiqarishlari kerak bo'ladi.

Xususiy mulkka egalik qilish yer, kapital va boshqa aktivlarni xarid, nazorat, egalik qilish, foydalanish, sotish va vasiyat qilish huquqini bildiradi. Xususiy mulkka egalik qilish psixologiyasi iqtisodiy faollik va ishbilarmonlik psixologiyasidir. Shaxsiy mulk egalari shaxsiy

boylik orttirish niyatida talab qilinayotgan ko'pdan-ko'p tovarlarni ishlab chiqarishga intiladilar.

Eng asosiysi, shaxsiy mulk erkin, birovlariga bog'liq bo'lmagan, o'z mulohazalari bilan ish ko'ruvchi shaxsni shakllantiradi. Bu xususiyatlar egasi nimalargadir egalik qilib, oz bo'lsa ham o'ziniki bo'lgan mulkka tayangan holda mustaqil faoliyat olib boradi.

Bozor munosabatlari asosini xususiy mulkchilik, ya'ni jamiyatda turli mulkchilik shakllariga tayanib faoliyat olib boruvchi subyektlarning o'z manfaatlarini ko'zlab faoliyat olib borishlari tashkil qiladi. Tovar bozorda bir mulkdan boshqa mulkka o'tadi va bunda o'zaro almashinuv tomonlarning xohishlari asosida, erkin bahodagi kelishuv natijasida amalga oshadi. Iste'mol buyumlari bir-biriga bog'liq bo'lmagan mustaqil shaxsiy faoliyat natijalari bo'lgani uchun tovarlarga aylanadi. Bozorda bu tovarlar o'z iste'molchilari egalariiga yetkaziladi. Xususiy mulk egalari bir-birlarining faoliyatlaridan manfaatdordirlar, negaki ular o'z ehtiyojlarini qanoatlantirish maqsadida turli xildagi tovarlar va xizmatlarni xarid qiladilar. To'g'ri, ular ba'zi hollarda yopiq natural xo'jalikka aylanib qolishlari ham mumkin (o'zlari uchun kerakli bo'lgan barcha tovarlarni ishlab chiqarib), biroq hozirgi zamonda bunday xo'jalikni tashkil etishning iloji yo'q, chunki insonlarning talablari nihoyatda keng, shuning uchun bu talablarning barchasini bir yopiq natural xo'jalik miqyosida ishlab chiqarish mumkin emas. Amalda iqtisodiyot qonunlarini inkor qilib shunday xo'jalik tashkil qilinsa, unda ishlab chiqarilgan tovarlar juda qimmat va sifatsiz bo'ladi. Oddiy hisob-kitoblar (qandaydir tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashish, ko'p, ayni vaqtda kam xarajatlar bilan, sifatlari), zarur tovarlarning almashinuvi foydali ekanligini ko'rsatadi. Ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchí va mehnat natijalariga shaxsiy mulkchiliksiz bozorning bo'lishi mumkin emas. Shaxsiy mulkning shakllanishi bozor iqtisodiyotining asosi bo'lib, ishlab chiqarish va jamiyat bozor munosabatlarining rivojlanishiga olib keladi. Bu o'z navbatida insonlarda tadbirkorlikni, mustaqil fikr yuritishni uyg'otadi, iqtisodiyotni harakatga keltiradi, xo'jalikni yanada samarali, rejali va tejamkorlik bilan yuritishga olib keladi.

Biroq shaxsiy mulkchilikning o'ziga yarasha salbiy tomonlari ham mavjud. Ba'zilarning shaxsiy mulkiga aylangan narsalardan boshqalar foydalana olmaydilar. Shunday hollar uchramasligi uchun bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat bunday mulklarni jamiyat, davlat mulkiga aylantirishga harakat qiladi va ulardan jamiyatning barcha a'zolari foydalanishlari uchun imkoniyat yaratadi. Bularga ko'pincha tabiat boyliklari: o'rmonlar, parklar, dam olish maskanlari, qo'riqxonalar, jamoat transporti, suv resurslari kiradi. Shu bilan birga xususiy mulkchilik insonlarni boy va kambag'allarga tabaqalanishiga olib keladi. Zamonaviy bozor iqtisodiyotida shaxsiy mulkchilikning bu kabi salbiy tomonlari jamiyat va davlat tomonidan cheklab turiladi. Bundan tashqari zamonaviy ishlab chiqarish ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, uni tashkil qilishda ko'pdan-ko'p shaxsiy mulk egalari birgalikda ishtirok etadilar, shu tariqa bozor iqtisodiyotining salbiy tomonlari kamayadi. [3:21-b.]

Zamonaviy, madaniylashgan bozor iqtisodiyotida xususiy mulkchilikning afzal tomonlari uning salbiy tomonlaridan ortib ketishidir. Mulikka shaxsiy egalik qilmasdan turib, erkin bozorni tashkil etish mumkin emas. Ishlab chiqarish vositalari, resurslar, ishchi kuchi va mehnat natijalariga kimlardir egalik qilishlari kerak. Shundagina ulardan samarali foydalanish mumkin. Boshqa hech qanday iqtisodiy boshqarish tizimi bu muammoni bozor iqtisodiyotichalik samarali yechib bera olmaydi. Shuning uchun ham har qanday jamiyat o'z imkoniyatlaridan to'la foydalanishga harakat qilsa, mavjud resurslarni samarali ishlab

chiqarishga jalb qilmoqchi bo'lsa, o'z iqtisodiyotini bozor munosabatlariga asoslagan holda yo'lga qo'yishi zarur.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilikning xususiy, jamoa, davlat, aralash mulk shakllari bo'lishi mumkin. Bular quyidagi jadvalda keltirilgan.

Insonlarga naf keltiruvchi har qanday ne'matlar mulk hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotida xususiy mulk yetakchi o'rinda turadi. Xususiy mulk ayrim kishilarga tegishli, ularga naf keltiruvchi mulkdir. Xususiy mulk yakka tartibdagi xususiy mulk, kooperativ xususiy mulk kabi ko'rinishlariga ega bo'ladi.

Yakka tartibdagi xususiy mulk yakka shaxsning mulki bo'lib, bu mulkka asoslangan korxonalar yakka shaxsga tegishli korxonalar hisoblanadi. Ayrim mulkdorlarga qarashli, yollangan ishchilari yoki mulkdorning shaxsan o'zi va oila a'zolari ishlaydigan korxonalar ham bo'ladi. [3:22-b.]

Kooperativ xususiy mulk ma'lum maqsadlarni ko'zlab o'zaro birlashgan mulk egalari xususiy mulki hisoblanadi. Bu mulkni mulk egalari alohida- alohida emas, balki birgalikda o'zlashtiradilar. Bunga misol qilib amalda aksiyadorlik jamiyati shaklida faoliyat ko'rsatadigan korporatsiyalarni ko'rsatish mumkin.

Bozor iqtisodiyotida jamoa mulki ham katta o'rin egallaydi. Bu mulk jamoaga birlashgan kishilarning umumiy mulki hisoblanadi. Jamoaga kiruvchilar jamoa mulkiga o'z hissalarini qo'shadilar hamda jamoa bo'lib ishlaydilar. Bunga oila mulki, mahalla mulki, kooperativ mulk, ijara mulki va boshqalarni sanab o'tish mumkin. Davlat mulki davlatning vazifalarini bajarishga xizmat qiluvchi korxonalar va tashkilotlarning mulkidan iborat. Davlat korxonalari aholiga bozor iqtisodiyoti ta'minlab bera olmaydigan tovarlar va xizmatlarni ko'rsatadi, ular asosan mahalliy hokimiyatlar qaramog'ida bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotida aralash mulk deb chet el fuqarolari va tashkilotlari hamda qo'shma korxonalar mulki tushuniladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ularning o'rni yuqori bo'ladi.

Har bir inson ozmi-ko'pmi, ma'lum miqdorda boylik yig'adi, buning uchun baholi qudrat harakat qiladi. Lekin bu boylikning haqiqiy egasi kim ekanligi haqida o'ylab ko'rilganmi? Uning haqiqiy egasi o'sha insonning o'zimi? Yoki hukumatmi? Yoki Alloh taolomi?

Bu borada uch xil nazariya bor:

1. Sarmoyadorlik, ya'ni kapitalizm nazariyasi;
2. Ishtirokiyat, ya'ni sotsializm, kommunizm nazariyasi;
3. Islomiy nazariya, ya'ni Islom iqtisodiyoti;

### **KAPITALIZM NAZARIYASI**

Kapitalizm nazariyasida mol-davlat aslida insonning mulkidir. Chunki inson uni o'z mehnati bilan topadi. Shuning uchun ham «uni qanday yo'l bilan topish va qanday sarf qilishda u ixtiyorlidir», deyiladi.

### **SOTSIALIZM-KOMMUNIZM NAZARIYASI**

Sotsializm-kommunizm nazariyasida mol-davlat hukumatning mulki hisoblanadi. Shuning uchun ham «hukumat uni o'zi xohlaganidek sarflaydi yoki taqsimlaydi», deyilgan.

### **ISLOM NAZARIYASI**

Islomiy ta'limotga ko'ra molu davlatning haqiqiy egasi Alloh taolo bo'lib, uni insonga

ma'lum bir muddatgacha foydalanishi uchun ato qiladi. Bu ma'no Qur'oni Karimda turlicha ko'rinishda bir necha bor zikr qilingan. Alloh taolo Nur surasida:

**«...va Allohning sizga bergan molidan ularga bering»** 33-oyatdan haqdorlarga beringlar. Ya'ni Alloh taolo sizlarga ato qilgan o'z molingizdan bering degan ma'no tushuniladi.

Shuningdek, Qasos surasida shunday marhamat qilinadi:

**«...Va Alloh senga bergan narsa bilan oxiratni izlagin»**, 77-oyat.

Ya'ni Alloh taolo sizlarga bergan mol bilan oxirat uyini talab qilinglar, deyilmoqda. Ba'zi insonlar «Inson molni o'z mehnati bilan topadi», deb o'ylashadi. Aslida bunday fikr xatodir. Chunki insonning ishi faqat mehnat qilishdan iborat. Ammo o'sha mehnatni samarali va barakali qilish Alloh taoloning ishidir. Bunga Voqi'a surasida shunday ishora qilingan:

**«O'zingiz ekadigan narsani o'ylab ko'ring-a! Uni siz undirasizmi yoki Biz undiruvchimizmi?»**, 63-64-oyatlar.

Ya'ni siz bandalarning ishingiz urug'ni ekib, dehqonchilik qilib, uni parvarish qilishdan iboratdir. Lekin o'sha ekin-tiknlarni undirib, o'stirib, samarador qilish va hosilini vujudga keltirish Alloh taoloning ishi. Bu ishlarni qilishdan inson zoti ojizdir. Agar Alloh taolo xohlamasa, u inson qanchalar mehnat qilmasin, dehqonchiligi hosil bermaydi.

Xulosa shuki, mol-davlat Alloh taoloning bandalariga bergan ne'matidir. Uni ma'lum bir muddatga foydalanishi uchun bergan. Shuning uchun Alloh taolo insonlarning bunday ishlarida qanday topishi va qanday sarflashida cheklov qo'yishga mutloq ixtiyorlidir. Masalan, biz biror shaxsga foydalanishi uchun o'z avtomashinamizni bersak, «Uni bunday qilib boshqar. Unga falon yuklarni ortma. Yo'l qoidalariga rioya qil va hokazo», deb bir qancha cheklovlar qo'yiladi. Agar ushbu mulohaza asosida shar'iy qonunlarni o'rganadigan bo'lsak, Islom moliyaviy muomalalarda uch xil cheklov qo'yganiga guvoh bo'linadi.

Ulamolar yuqorida aytilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqib, mulk haqida turli fikrlarni aytishgan. Ularning ta'rifi va turlari qanday ekanligi borasida mazhablararo farqlar bayon etilgan. Ulamolar mulklarni ikki xil turga ajratib har biriga alohida ta'rif berishgan.

Quyida shu ta'riflarga va ularning turlariga to'xtalib o'tiladi.

Hanafiylarning ta'rificha, ko'chmas mulklar bu – o'z o'rnidan ko'chirib bo'lmaydigan va ko'chirsa ham talafot bilan ko'chiriladigan yerlar, binolar va ildizi chuqur otgan daraxtlar kiradi lekin ko'chatlar kirmaydi. [1: 34-b.].

Molikiylar esa, ko'chmas mulklar bu – yer va unga o'rnashgan binolar va daraxtlardir, deyishgan.

Shofe'iyilarning ta'rifiga ko'ra, ko'chmas mulklar bu – binolar, yerlar va xurmoldardir.

Ko'chmas mulkka egalik qilish borasida "Kashshaful Qona" kitobida bunday deyilgan: "Egalik qilish ko'chmas mulklardan boshqa narsalarda hosil bo'ladi. Ko'chmas mulklar bu – yaylov, yer, bino, ekin va unga ergashgan narsalardir". [2 : 640-b.].

Demak, ulamolar bir joydan boshqa joyga ko'chirib o'tishi mumkin bo'lmagan tovarlar "ko'chmas mulk" ekanligiga ixtilof qilishmagan.

Surati va ko'rinishi saqlanib qolishi bilan bir o'rindan boshqa o'ringa ko'chirish mumkin bo'lgan mulklar esa "ko'char mulklar" deyiladi.

Jumhur ulamolar uni "ko'chmas mulk" deydilar.

Molikiylar esa "ko'char mulk" deydilar.

Shunga ko'ra, jumhur ulamolar ko'chmas mulkka quyidagicha ta'rif berganlar:

- asli sobit bo'lib, ko'chirib o'tkazish va o'zgartirish mumkin bo'lmagan mulklar ko'chmas mulk deyiladi. Bunga erkin yerlarning barcha turlari, bino yerlari va undan boshqa yerlar kirib ketadi.

- ko'char mulklar – ular ko'chirib o'tkazish mumkin bo'lgan, ko'chirishdan oldin qanday bo'lsa shunday saqlanib qoladimi yoki yo'qmi – farqi yo'q: ular ko'char mulk hisoblanadi. Bularga barcha hayvon turlari, pullar, kayliy va vazniy o'lchanadigan barcha tovarlarni qamrab oladi.

Ko'char mulkning tovar hisoblanmaydiganlari, ko'chmas mulkga ergashib ko'chmas mulkning hukmiga kirib ketadi. Chunki bular doimiylik va sobitlikda ko'chmas mulk bilan birga bo'lgani uchun ko'chmas mulk turiga kiradi. [1: 34-b.].

Molikiylar ko'chmas mulkga quyidagicha ta'rif berishgan: "Asli sobit bo'lib, ko'rinishi va shakli saqlangan holda bir o'rindan boshqa ko'chirib o'tkazish, o'zgartirish mumkin bo'lmagan narsalar ko'chmas mulk deyiladi. Bular binolar, daraxtlar, xurmolar va undan boshqa narsalar kiradi".

Ko'char mulk – uni boshqa o'ringa ko'chirib o'tkazish, o'zgartirish mumkin bo'lgan tovarlar ko'char mulk bo'ladi. Uni surati ko'chirishdan avval qanday bo'lsa, shundayligicha qolgan bo'ladimi yoki ko'chirilganda surati o'zgargan bo'ladimi – farqi yo'q. [1: 34-b.].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbekistonda iqtisodiyotning samarali amal qilishiga va xalq farovonligining o'sishiga imkoniyat yaratuvchi har qanday shakldagi mulkchilik bo'lishiga ruxsat berilgan. Mulkchilikning hamma shakllari daxlsiz bo'lishiga va ularning rivojlanishi uchun teng sharoit yaratilishiga qonun kafolat beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Adlon ibn G'oziy as-Shimroniy. Bay' al-iqor va ta'jiruhu fi al-fiqh al-islomiyiy. – Riyoz: Shirkat al-ibikon lit-ta'lim, 1437/2016.
2. Shayx Mansur ibn Yunus ibn Idris al-Buhutiy. Kashshaf al-Qona'an matn al-iqna'. – Darun Navodir, 1403/1983.
3. Olimjon Abdullayev, Janoboy Isaqov, Doniyor Abdullayev, Odiljon O'rinboyev. Makro-mikro iqtisodiyot asoslari. – Toshkent: "Cho'lpon" nashriyoti, 2004.
4. www.aniq.uz